

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

FAYZIXODJAEVA DILBAR IRGASHEVNA

**ARGUMENTLASH MANTIQUIY-KOMMUNIKATIV
NAZARIYASINING FALSAFIY TAHLILI**

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UDK:111.1:164.2:164.03.2/3(575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата доктора наук (DSc)
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Fayzixodjaeva Dilbar Irgashevna

Argumentlash mantiqiy-kommunikativ
nazariyasining falsafiy tahlili.....

Файзиходжаева Дилбар Иргашевна

Философский анализ логико-коммуникативной теории
аргументации.....

Fayzixodjaeva Dilbar Irgashevna

Philosophical analysis of the logic-communication theory of
argumentation.....

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of publications.....

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

FAYZIXODJAEVA DILBAR IRGASHEVNA

**ARGUMENTLASH MANTIQUIY-KOMMUNIKATIV
NAZARIYASINING FALSAFIY TAHLILI**

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2017.1.DSc/Fal5 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fs-ik.uz) va Ziyonet Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslaxatchi:

Turaev Baxtiyor Omonovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Izzetova Emine Mustafaevna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Artikov To‘lanboy Artikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Sultanova Gulnoza Sobirovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc 27.06.2017.F.01.05 Raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil .kuni _____soatdagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

(Manzil:1000174.Toshkent shahri,Universitet ko‘chasi 4 uy.)O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4 qavat, 417 xona. Tel: (99871) 227 12 24; faks(99871) 246 53 21; e-mail nauka@nuu.uz

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil:100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi 4-uy. Tel: (9987)246-02-24, faks: (9987) 227-12-24.)

Dissertatsiya avtoreferati ____yil, _____kuni tarqatildi.
(____yil _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

I. S. Saifnazarov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi falsafa fanlari
doktori, professor.

G. M. Ruzmatova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, falsafa fanlari
doktori, professor.

J. S. Ramatov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, falsafa fanlari doktori,
professor.

KIRISH (falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda, axborot-kommunikativ texnologiyalarning jadal rivojlanishi oqibatida, XX asrning oxirgi choragida boshlangan globallashuv jarayonlari insonlar o'rtasidagi shaxsiy va ijtimoiy muloqotning mazmuni va xajmiga konstruktiv va destruktiv ta'sir ko'rsatishi natijasida, muloqotning inson ongi va xatti xarakterlarini o'zgartiruvchi omil ekanligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi. Axborotlashgan jamiyatda argumentlash, ya'ni biror fikrning haqqoniyligi, ishonchliligi, maqbulligini dalillash orqali u yoki bu g'oya, ta'limot, qarash, fikrga nisbatan ishonch-e'tiqodni shakllantirish inson ongini egallashning eng samarali va ta'sirchan vositasi ekanligining ilmiy asoslanishi kommunikativ makonda axborotlar xujumining kuchayishiga olib keldi. Bugungi kunda inson ongi va qalbini egallashning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq qilish davlatlarning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biriga aylandi.

Jahonning rivojlangan davlatlaridagi yirik ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlari, ilmiy markazlarining yetakchi olimlari tomonidan argumentlashning formal, noformal, pragmadialektik, dialogik, kognitiv, pragmalingvistik va kommunikativ darajalariga xos xususiyatlar, argumentlashning epistemik, emotsional, kognitiv, lingvistik jihatlari, argumentlovchi diskurs kabi muammolar globallashuv va global axborot makoni bilan bog'liq holda chuqur o'rganilmoqda. Ilm-fan yutuqlari, IT sohasidagi yangi g'oyalarning amaliyotga tatbiq qilinishi natijasida ta'lim va tarbiyada, virtual muloqotda argumentlash, sun'iy intellekt va argumentlash, raqamli platformada argumentlash masalalarini tadqiq qilishni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun- maqsadi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishdir. Davlat xizmatchilari va ularga murojaat qiluvchilar o'rtasidagi real va virtual muloqot shakllarini gumanistik asosda shakllantirish, jamiyatimiz a'zolarining axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va muloqot qilish madaniyatini yuksaltirish "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi tadqiqotlar olib borishni, ilmiy nazariyalarni ishlab chiqishni taqazo qilmoqda¹. Shaxslararo, millatlararo, davlatlararo muloqotni o'rganuvchi argumentlashga oid ilmiy tadqiqotlar Yangi O'zbekistonda, "Harakatlar strategiyasidan–Taraqqiyot strategiyasi sari" yo'naltirilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalq bilan ochiq muloqot qilishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etishning, ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshirishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion usullarini ishlab chiqish, muomala madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarning axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони.

tanqidiy, taxliliy tafakkurlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 18 iyuldagi PQ-3138-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktabrdagi 595-son «Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy xujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyatni rivojlantirish» ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Argumentlashning shaxslar, davlatlar va madaniyatlar muloqoti kesimida normativ, deskriptiv va produktiv nazariyalari pragmadialektik, ritorik, kognitiv, lingvistik yondashuvlar doirasida jahonning rivojlangan davlatlaridagi yirik ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlari, ilmiy markazlarining yetakchi olimlari tomonidan tadqiq qilinmoqda, jumladan, University of Rutgers (Nyu Djersi, AQSh), University of Solorado Boulder (AQSh), University of Windsor (Kanada), University of Edinburgh (Angliya), University of Amsterdam (Niderlandiya), University of Groningen (Niderlandiya), University of Sopenhagen (Daniya), University of Lugano (Shveysariya), University of Tokyo (Yaponiya), University of Yonsei (Janubiy Koreya), University of Kim *IL Sung* (Pxenyan, KXDR), Kiev Milliy universiteti (Ukraina), Belorussiya davlat iqtisodiy universiteti (Belorussiya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Kazan federal universiteti (Rossiya) va O'zbekiston Milliy universitetida (O'zbekiston) tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyo olimlari tomonidan, argumentlash nazariyasini nutqiy aktlarga asoslanib, mantiqning formal va noformal nazariyalarining argumentlash amaliyoti

² <https://www.rutgers.edu>; <https://www.colorado.edu>; <https://www.uwindsor.ca>; <https://www.ed.ac.uk/>; <https://www.abc.uva.nl/>; <https://www.rug.nl/>; <https://www.ku.dk/>; <https://www.usi.ch/en/>; <https://www.u-tokio.ac.jp/en/>; <https://www.yonsei.ac.kr/>; <https://www.ryongnamsan.edu.kp/>; <https://www.univ.kiev.ua/>; <https://bseu.by/>; <https://philos.msu.ru/kaf/logic/>; <https://philosophy.spbu.ru/ru/institut...kafedra-logiki.html>; <https://kpfu.ru/>; www.nuu.uz.

bilan bog‘liq xolda o‘tkazilgan ilmiy amaliy tadqiqotlar bo‘yicha quyidagi natijalar olingan: nutq va diskursda, bilish jarayonlarini boshqarishda, ijtimoiy tarmoqlarni taxlil qilishda argumentlashning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslangan (University of Rutgers, Nyu Djersi, AQSh), kommunikatsiyaning turli ko‘rinishlari va darajalarida argumentlashning normativ nazariyalari ishlab chiqilgan (University of Solorado Boulder, AQSh), xodimlarni boshqarishda va nizolarni xal qilishda argumentlash usullarini samarali qo‘llash vositalari aniqlangan (University of Windsor, Kanada), argumentlashning lingvistik jihatlarini va diskurs taxlili o‘rganilgan (University of Edinburgh Angliya), argumentlashning pragma-dialektik konsepsiyasi yaratilgan (University of Amsterdam Niderlandiya), sun‘iy intellektni yaratishda va kognitiv injeneriya masalalarini o‘rganishda argumentlashni qo‘llash muammolari o‘rganilgan (University of Groningen, Niderlandiya), ommaviy axborot vositalarida argumentlash usul va vositalari tadqiq qilingan (University of Sopenhagen, Denmark), argumentatsiya, lingvistika, semiotikaning o‘zaro dialektik aloqadorligi aniqlangan (University of Lugano, Switzerland), ta‘limda argumentlashni qo‘llashning ta‘lim samaradorligini oshirishga konstruktiv ta‘siri o‘rganilgan (University of Tokyo, Japan), tushinish va tushuntirishda argumentlash, argumentlarni tanqid qilish va baholash muammolari o‘rganilgan (University of Yonsei, Janubiy Koreya), argumentlashning epistemik jihatlarini ishlab chiqilgan (University of Kim IL Sung, Pxenyan, KXDR), noformal mantiq, ilmiy argumentlash, argumentlashda yolg‘on masalalarini ilmiy asoslangan (Kiev Milliy universiteti, Ukraina), fanda argumentlashning strukturasi va dinamikasi ochib berilgan (Belorussiya Davlat iqtisodiyot universiteti, Belorussiya), nomonoton mantiqiy sistemalarda argumentlashning o‘ziga xosligi aniqlangan (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya), argumentlashning kognitiv jarayonlar bilan bog‘liqligi asoslangan (Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya), argumentlash fazilatlar epistemeologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq qilingan (Kazan federal universiteti, Rossiya), muloqotning ishonch-e‘tiqodni shakllantirishga ta‘siri, argumentlashning kommunikativ jihatlarini va uning shaxs qadriyatlar tizimi bilan aloqadorligini tadqiq qilingan (O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston).

Dunyoda argumentlash nazariyasi bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: argumentlashga sub‘ektiv faktorning konstruktiv va destruktiv ta‘siri, argumentlashdagi xatolar, argumentativ diskursda strategik manevrlash va argumentlash sxemalari, argumentlash va sun‘iy intellektni yaratish, virtual olamda argumentlash, raqamli platformada argumentlashning o‘ziga xos jihatlarini, argumentlash va tanqidiy tafakkurni shakllantirish, ta‘lim jarayonida argumentlash, deliberativ argumentlashning ijtimoiy jarayonlarga ta‘siri va boshqalar.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Argumentlashning verbal faoliyat ekanligi, uning lingvistik paradigmalar bilan bog‘liqligi nutqiy aktlar nazariyasida asoslab berilishi natijasida, argumentlovchi sub‘ektlarning kommunikativ va interaksional rollariga e‘tibor qaratildi. Argumentlashni sof mantiqiy, ratsional hodisa

emas, balki shu bilan birga hissiy, ruhiy hodisa sifatida nutqiy aktlar nazariyasi bilan aloqadorlikda o‘rganish, bu sohada qator yo‘nalishlar va yondashuvlarni shakllantirdi.

Argumentlash nazariyasiga oid e‘lon qilingan ilmiy ishlardagi terminlarning taxlili olimlarning qiziqishlari mantiq va falsafiy yo‘nalishlar doirasidan chiqqanligini, pragmativ, kognitiv, kommunikativ, interaksion, ritorik, lingvistik yondashuvlar shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu yondashuvlar bir-biri bilan tutashib ketadi. Ushbu tadqiqotda ma‘lum darajada yuqoridagi yondashuvlarning sintezi amalga oshirilgan.

Argumentlash nazariyasining klassiklari bo‘lgan X. Perelman va L.Olbrechts-Titekaning “Yangi Ritorika” asari,³ Frans van Yeemeranning argumentlashning pragmadialektik nazariyasi,⁴ S.Tulminning argumentlash sxemalari⁵ zamonaviy tadqiqotlar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi. Yu. Xabermasning kommunikativ ta‘sir konsepsiyasi⁶ argumentlashning kommunikatsiya bilan o‘zaro dialektik aloqadorligini asoslab berdi. E.Bleyer va R.Djonsonning noformal mantiq‘ida tabiiy tilda argumentlashni qurish va baholashning noformal standartlari, uni talqin qilishning usullari va mezonlari ishlab chiqildi.⁷

Dj.Vuds va A. Irvin,⁸ D.Uolton,⁹ G.Leo va X.Tindale,¹⁰ T.Kovier,¹¹ D.K. Vilson,¹² B. Bennet,¹³ A.Aberdein¹⁴ kabi olimlarning tadqiqotlaridagi argumentlashning nazariy va amaliy masalalari, argumentlashning mohiyati, strukturasi, nuqtai nazarning ifodalanishi, argumentlarning turlari, yaxshi (sifatli) argumentlar, yashirin asoslar, argumentlash bilan bog‘liq xatoliklar, argumentlashga axloqiy fazilatlarining ta‘siriga oid g‘oyalaridan qo‘yilgan muammoni tadqiq etishda foydalanildi. Argumentlash nazariyasi doirasida Amerika va Yevropa olimlarining ilmiy tadqiqotlari keng qamrovli bo‘lgani bois, ulardan mavzuimizga bevosita taalluqli bo‘lganlariga e‘tibor qaratildi.

³ Perelman C., Olbrechts-Tyteca L. The New Rhetoric. A Treatise on Argumentation. Notre Dame etc.:University of Notre Dame Press, 1969.

⁴ Франс Х. ван Еемерен, Роб Гроотендорст Аргументация, коммуникация и ошибки. Санкт-Петербург: «Васильевский остров» 1992.

⁵ Toulmin S.E. The Uses of Argument. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

⁶ Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие. – СПб.: Наука, 2000. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. в 2 томах. Т. 1. –М.: Наука, 1981.

⁷ Blair J.A.,Jonson R.H. A logical Self-Defense 3rd ed. Toronto: McGraw H: II Reyrson,1993.

⁸ Woods, John, Andrew Irvine and Douglas Walton, 2004. Argument: Critical Thinking, Logic and the Fallacies. Toronto: Prentice Hall.

⁹ Douglas N. Walton (2008). Informal logic: a pragmatic approach (2nd ed.). Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-71380-1. Walton D. Argumentatoin Schemes for Presumptive reasoning. Lawrence Erlbaum Associates, NY,1996 (2001) Уолтон Д. Аргументы ad hominem. Москва, 2002.

¹⁰ Groarke, Leo and Christopher Tindale, 2004. Good Reasoning Matters! (3rd edition). Toronto: Oxford University Press;

¹¹ Trudy Govier (2009). A Practical Study of Argument (7th ed.). Cengage Learning. ISBN 978-0-495-60340-5.

¹² Wilson D. C. (2020) A Guide to Good Reasoning: Cultivating Intellectual Virtues (2nd edition) University of Minnesota Libraries Ebook ISBN 978-1-946135-66-7.

¹³ B.Bennet. Logically fallacious. Archieboy Holdings, L.L.C. 2017.

¹⁴ Aberdein A. Virtue in argument // Argumentation 24 (2), 2010. P. 165-179.

Sobiq Ittifoq davrida birinchi bo‘lib bahsning turlari va argumentlash masalasini rus olimi S.I. Povarnin tadqiq qilgan.¹⁵ U bahsning dialektik va kommunikativ darajalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Argumentlashning falsafiy tabiati va falsafiy argumentlashning tabiati G.A. Brutyanning monografiyasida tadqiq qilingan.¹⁶ 1986 yili “Argumentlashning falsafiy masalalari” nomli maqolalar to‘plami nashr qilingan.¹⁷

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida argumentlash nazariyasi bilan bog‘liq tadqiqotlarning asosiy qismi Rossiya, Ukraina va Belorussiyada amalga oshirilgan. A.P.Alekseev, V.M.Bryushinkin, A.A.Ivin, I.N.Grifsova, Ye.G.Dragalina-Chernaya, I.V. Xomenkolar argumentlashning mantiqiy asoslari, formal va noformal mantiqning o‘zaro nisbati va argumentlashning mantiqiy, kognitiv, ritorik jihatlarini kompleks o‘rganuvchi argumentlashga tizimli yondashuv bo‘yicha tadqiqot olib borishgan.¹⁸ I.B. Mikirtumov, Ye.N.Lisanyuk, D.V. Zaysev V.S.Grigorevalar argumentlashning kognitiv, kommunikativ va lingvistik jihatlariga oid salmoqli ilmiy natijalarga erishganlar.¹⁹ Argumentlashning epistemik asoslari tadqiq qilinishining natijalari bo‘lgan ilmiy xulosalar I.A.Gerasimova, A.R. Karimov²⁰ tadqiqotlarida aks etgan. V.Rodosning tadqiqotida argumentlashda uchraydigan xatolar tahlil qilingan.²¹ Y.S.Yaskevich, Ye.N.Viktoruk tadqiqotlarida ilmiy, falsafiy, axloqiy argumentlashning o‘ziga hos xususiyatlari tadqiq qilingan.²²

Bu tadqiqotlarning har biri muhim va dolzarb bo‘lib, argumentlash nazariyasining turli jihatlarini qamrab oladi. Yuqorida qayd qilingan olimlarning asarlarida tadqiqot muammosini aks ettiruvchi masalalar ma’lum darajada yoritilgan bo‘lsada, bizning bu masalalarga yondoshuvimiz konkret empirik kuzatishlarga asoslanganligi va milliy mentalitetimiz bilan aloqadorlik jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Shuningdek, yuqoridagi tadqiqotlarda argumentlashning Sharq va G‘arb tafakkur tarzi va mentalitetiga xos tomonlariga e’tibor qaratilmagan. Ushbu tadqiqotning

¹⁵ Поварнин С.И. Искусство спора. – Москва: Рабочий путь. 2018.

¹⁶ Брутян Г.А. Очерки по анализу философского знания – Ереван: Айастан., 1979.

¹⁷ Философские проблемы аргументации // Сборник статей. – Ереван: Издательство АН Армении, 1986.

¹⁸ Алексеев А.П. Аргументация. Познание. Общение. – Москва, 1991. Брюшинкин, В.Н. Системная модель аргументации// Трансцендентальная антропология и логика: труды международного семинара «Антропология с современной точки зрения» VII Кантовских чтений. 2000. Ивин А. А. Обнаженность и отчуждение: философское эссе о природе человека. – Санкт-Петербург: Алетейя; 2015 Ивин, А.А. Аргументация в процессах коммуникации – М.: Проспект, 2017. Грифцова, И.Н. Логика как теоретическая и практическая дисциплина. К вопросу о соотношении формальной и неформальной логики. – Москва: Эдиториал УРСС, 1998. Драгалина-Черная Е.Г. Неформальные заметки о логической форме. – СПб.: Алетейя, 2015.

¹⁹ Е.Н.Лисанюк. Логико-когнитивная теория аргументации. – Санкт-Петербург, 2015. Алексеев А.П. Аргументация. Познание. Общение. – Москва, 1991. Григорьева В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивный аспекты. Монография. – Тамбов, 2007.

²⁰ Герасимова И.А. Введение в теорию и практику аргументации. – Москва: Логос, 2007. Каримов А.Р. Глубокое разногласие и аргументативные добродетели // Общество: философия, история, культура. 2018. № 1. С. 21-24. Каримов А. Р. Эпистемология добродетелей / А. Р. Каримов – «Алетейя», 2018.

²¹ Родос В Правила дискуссии и уловки в споре. – Москва: Идея-Пресс, 2006

²² Яскевич Я.С. Аргументация в науке. Монография. – Минск.: Университетское, 1992. Яскевич, Я.С.

Методология и этика в современной науке: поиск открытой рациональности. – Минск: БГЭУ, 2007. Викторук Е.Н. Неклассические модели этической аргументации. Монография. – СПб, 2003.

yuqoridagilardan yana bir farqli jihati, unda Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Homid G‘azzoliy kabi O‘rta asr Yaqin va O‘rta Sharq mutafakkirlarining argumentlash nazariyasi va notiqlik san‘atiga oid ilmiy xulosalarining bugungi kundagi nazariy va amaliy ahamiyatini asoslab berishga harakat qilingan.

Yurtimiz olimlarining ushbu tadqiqot mavzuiga ma‘lum darajada yaqin bo‘lgan ko‘plab ilmiy va o‘quv uslubiy ishlari mavjud. Respublikamizning taniqli olimlaridan O.F.Fayzullaev, M.M.Xayrullaev, M.N. Abdullaeva, Z.D.Davronov, B.R.Karimov, B.T.Tuychiev, B.O. Turaev, M.Sharipov, Q.N. Nazarov, N.A. Shermuxammedova, B.Omon, L.Muhammadjonova va boshqalarning deduktiv nazariyalarni tatbiq qilish sohasi sifatida argumentlash masalalarining muayyan jihatlari aks etgan darslik, o‘quv qo‘llanmalari va notiqlik san‘atiga oid o‘quv adabiyotlari shular jumlasidandir.²³

G. G‘. G‘affarova, X. Soqiev, A.I.Tulyaev va boshqalar axborot, jamiyatning axborotlashuvi va virtual muloqot madaniyatiga oid muhim ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan²⁴. U.L. Kerimov, S. Allayarova, U.A.Mahkamov, R.Xudoyberganovlarning tadqiqotlarida ijtimoiy kommunikatsiyaning til, nutq, tushunish va tushuntirish bilan bog‘liq muammolar tadqiq qilingan.²⁵ Respublikamiz filolog olimlari tomonidan ham nutqiy aktlar, tushunish va tushuntirish bilan bog‘liq tilshunoslik sohasida tadqiqotlar o‘tkazilgan.²⁶ Yuqoridagi taxlillarni umumlashtirib, aytish mumkinki, xorij va respublikamiz olimlarining tadqiqotlarida dissertatsiyamiz mavzui bilan ba‘zi tutash nuqtalar mavjud bo‘lgani bilan, tanlangan mavzu mustaqil tadqiqot ob‘ekti sifatida maxsus tadqiq qilinmagan.

²³ Файзуллаев О.Ф. Фалсафа ва фанлар методологияси / Маърузалар матни. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқук, 2006. М.М. Хайруллаев, М.Ҳакбердиев. Мантик. –Тошкент, 1985., М.Н. Абдуллаева. Миллий ғоянинг илмий-фалсафий асослари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқук, 2011., Давронов З. Илмий ижод методологияси. –Тошкент: ТМИ, 2007., Каримов Б.Р. Миллат, инсон ва тил: тараққиёт муаммолари. – Қарши, 2003., Туйчиев Б.Т.Логика. –Ташкент, 2002., Б.О. Тураев. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари. Танланган асарлар: 3 жилдик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015., Шарипов М. Мантик. –Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти, 2012., Қ.Н.Назаров. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1 ва 2 жилдлар. –Тошкент:Маънавият, 2020., Н.А. Шермухаммедова. Гносеология. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2007., Б.Омон. Сиёсий етакчининг нотиклик маҳорати. –Тошкент, 2000., Л.Муҳаммаджонова. Риторика. –Тошкент: Adabiyot uchquni, 2019.

²⁴ Гаффарова Г.Г. Мураккаб тизимларда ахборот генерациясининг фалсафий методологик асослари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019., Соқиев Х.В. Ахборотлашган жамиятда шахс идентиклигининг шаклланиш хусусиятлари. –Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2022., Туляев А.И. Виртуал оламнинг ахлоқий муаммолари (фалсафий таҳлил). –Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2021.

²⁵ Керимов У.Л. “Теория логического синтеза речи как микрокосма бытия.” – Фалсафа фанлари бўйича докторлик диссертацияси автореферати. Т. 2011. Аллаярова С.Н. Герменевтика. –Тошкент: Extremum-press, 2017. Махкамов У.А. Диалог – ижтимоий жараёнларни тушунтиришнинг методологик омили. –Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.2019. Худойберганов Р. “Тил ва коммуникация мутаносиблигининг фалсафий методологик жиҳатлари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Т. 2021.

²⁶ Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, 2001. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 49 б. Тоирова Г. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 49 б. Қамбаров Ғ.С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б. Ҳайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 25 б.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Falsafa tarixining zamonaviy nazariy metodologik muammolari" va "Mantiq: tarix va zamonaviy muammolar" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi argumentlash mantiqiy-kommunikativ nazariyasining falsafiy mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

argumentlash va kommunikatsiyaga oid g'oyalar rivojini falsafiy-tarixiy va metodologik jihatdan o'rganib, muloqot jarayonida kommunikativ va interaksional jihatlarining namoyon bo'lishi va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;

argumentlashning kommunikativ strukturasi chinlik va maqbullikning o'zaro nisbatini tadqiq qilib, argumentlashdagi yolg'on tushunchasi bilan mantiqdagi yolg'on tushunchasining farqini ochib berish;

kommunikativ faoliyat sifatida argumentlash jarayonida qadriyatlarining rolini ko'rsatish, axloqiy qadriyat, diniy qadriyatlardan har birining argumentlash jarayonida bajaradigan vazifasi (nuqtai nazar va asos, argument sifatida)ni aniqlash va asoslashning mantiqiy mexanizmlarini tahlil qilish;

kommunikativ modellarda nizolarning mantiqiy asoslarini va argumentlash jarayonida eng ko'p yo'l qo'yiladigan xatolarni kommunikativ agentlarning intellektual fazilat va intellektual nuqsonlari nuqtai nazaridan tasniflash va kelishuvning turlarini aniqlashtirish;

kommunikativ faoliyat sifatida argumentlashga oid O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlari ta'limotlaridagi g'oyalarning samaradorligini isbotlab berish;

argumentlashning milliy mentalitetimizga xos tomonlarini o'rganib, undan ta'limning samaradorligini oshirishda, milliy ma'naviyatimizga yot g'oyalarga qarshi kurashishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda foydalanishning usul va vositalariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ektini ijtimoiy kommunikatsiyadagi argumentlash jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti argumentlash mantiqiy-kommunikativ nazariyasining falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada fenomenologik, germeneytik, sinergetik va tizimli yondashuv, freyming, verifikatsiya, falsifikatsiya, intent analiz kabi tadqiqot usullari qo'llangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

insonlar o'rtasidagi muloqotning kommunikativ va interaksional jihatlariga ijtimoiy-psixologik, lingvistik omillar dialektik o'zaro aloqadorligining ta'siri tushuntirish va tushunish, ishontirish va ishonish, o'zi uchun xulosa chiqarishda namoyon bo'lishi isbotlangan;

argumentlashning kommunikativ strukturasi chilik va maqbullikning o'zaro nisbatiga muvofiq, mantiqdagi yolg'on (fikir mulohazalarning ob'ektiv realikka mos kelmasligi) va argumentlashdagi yolg'on (ataylab olamning buzilgan manzarasini shakllantirishga qaratilgan interaksiya) tushunchalarining formal-mantiqiy va pragmatik-dialektik farqi ochib berilgan;

axloqiy va diniy qadriyatlarning argumentlash jarayonida nuqtai nazarning shakllanishi, o'zgarishiga konstruktiv va destruktiv ta'siri ko'rsatilib, ularni mantiqiy asoslashning demonstrativ va nodemonstrativ usullari aniqlangan;

kommunikativ modellarda kommunikativ agentlarning intellektual fazilati (kommunikativlik, xolislik, intellektual g'ayrat va b.) argumentlash jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi, nizolarning mantiqiy asoslari va argumentlash jarayonida eng ko'p yo'l qo'yiladigan xatolar intellektual nuqsonlarga (beqarorlik, fikrini o'zgartirishni istamaslik, manmanlik va b.) bog'liqligi isbotlangan;

O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlarining argumentlash nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga qo'shgan hissalar bahs-munozara yuritishning dialektik qoidalari, notiqning nutqiga qo'yiladigan kognitiv va lingvistik talablar haqidagi g'oyalarining milliy mentalitetimiz, milliy qadriyatlarimizni g'oyaviy hujumlardan himoya qilishda paradigmal ahamiyatga egaligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

axloqiy va diniy qadriyat tushunchalarining ta'rifi, qadriyatlar tizimi bilan nuqtai nazarning o'zaro aloqadorligi jamiyat a'zolarining tanqidiy tafakkurlash ko'nikmalarini rivojlantirilishiga va muomala madaniyatini yuksalishiga xizmat qilishi pragmatik jihatdan asoslab berilgan;

xalq bilan ochiq muloqot qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning, ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshirishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion usullarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligida aks etadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati real va virtual argumentlashga oid zamonaviy tadqiqotlarni olib borish, argumentlashning tushunish va tushuntirishdagi, ishonch-e'tiqodni shakllantirishdagi o'rniga oid xulosalardan falsafiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, mantiqiy-kommunikativ yondashuvga asoslanib, real va virtual makonda axoli bilan muloqot qilish jarayonida respublikamizdagi ma'naviyat-ma'rifat sohasida faoliyat olib boradigan davlat va nodavlat tashkilotlarining barcha bo'g'imlarida, shuningdek OAV larida, axborotlarni

qabul qilish va uzatishning yuqori ishonchlilik darajasini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Argumentlash mantiqiy-kommunikativ nazariyasining falsafiy tahlili” mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

argumentlash mantiqiy-kommunikativ nazariyasining falsafiy asoslari taxlil qilinib, insonlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim jihatlari tushunish va tushuntirish, ishonirish va ishonish, o'zi uchun xulosa chiqarish ekanligi haqidagi ilmiy xulosalardan «Mantiq tarixi va nazariyasi» nomli darslikda foydalanilgan. O'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasini ro'yxatga olish raqami 744-074 (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022 yil 17 noyabrdagi № 02/01-01-72 son ma'lumotnomasi). Natijalar darslikni yangi ilmiy faktik ma'lumotlar bilan boyitish imkonini bergan;

argumentlashning kommunikativ strukturasi tashkil etuvchi elementlardan nuqtai nazarning shakllanishi, o'zgarishi va qabul qilinishi (rad etilishi) bilan bog'liq holatlar aniqlandi, argumentlashdagi yolg'on tushunchasi bilan mantiqdagi yolg'on tushunchasining farqiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi o'quv mashg'ulotlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining 2022 yil 15 noyabrdagi 3129-son ma'lumotnomasi). Kommunikativ makonda chinlik va maqbullikning o'zaro nisbati va argumentlashning milliy mentalitetimizga xos usullaridan foydalanishga oid nazariy xulosalar va amaliy takliflar shaxsiy tarkib bilan olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarda milliy ma'naviyatimizga yot g'oyalarga qarshi kurashishga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan;

axloqiy qadriyat, diniy qadriyat tushunchalaridan har birining bajaradigan vazifasi (nuqtai nazar va asos, argument sifatida) va asoslash mexanizmlariga oid ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati tomonidan chop etilgan «Jahon falsafasi qomusi» (1 va 2 jild) va «Ma'naviyat izohli lug'ati»da foydalanilgan (O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining 2022 yil 29 noyabrdagi 14-son ma'lumotnomasi). Mazkur adabiyotlardagi ayrim tushunchalarga ilmiy asoslangan ta'rif berilishi, falsafiy mohiyati ochib berilishiga xizmat qilgan;

kommunikativ modellarda nizolarning mantiqiy asoslari taxlil qilinib, kelishuvning turlari (haqiqiy va soxta) aniqlandi va kommunikativ agentlarning intellektual fazilat va intellektual nuqsonlari argumentlash jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi borasidagi ilmiy xulosalar va amaliy takliflardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xuzuridagi Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar institutining 2022 yilda Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining V yo'nalishida belgilangan “Targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha

bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar"ning 18 bandi bo'yicha o'tkazilgan targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xuzuridagi Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar institutining 2022 yil, 28 noyabr 366- son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar global axborot makoni ta'sirida milliy mentalitetimiz, milliy qadriyatlarimiz, azaliy an'ana va urf-odatlarimizning qadrini oshirish, g'oyaviy tarbiya mexanizmini kuchaytirish uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilgan;

O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlarining argumentlash nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga qo'shgan hissalar va ilgari surgan g'oyalarining milliy mentalitetimiz, milliy qadriyatlarimizni g'oyaviy hujumlardan himoya qilishdagi ahamiyatiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston televideniesining O'zbekiston tarixi kanalida 2021 yilda efirga uzatilgan «Buyuk siymolar» ko'rsatuvi stsenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokompaniyasining 2022 yil 5 dekabrda 02-31-1984 son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar teletomoshabinlarni Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sinoning xulosa chiqarish va isbotlash, dialektik bahs yuritish qonun-qoidalari, notiqning nutqiga qo'yiladigan talablar haqidagi ilmiy xulosalari, Burhoniddin Marg'inoniyning ilmiy merosi bilan yaqindan tanishtirish, milliy-ma'naviy merosimizni keng targ'ib qilish va jamiyatimiz a'zolari tafakkurini kengaytirish va bilim darajasini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 47 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan 1 ta monografiya, 1 ta lug'at, O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola (12 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 246 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi taxlil qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmeti, tadqiqot usullari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining

amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, shuningdek dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “Argumentlashning mantiqiy kommunikativ nazariyasi: falsafiy va metodologik asoslar” deb nomlangan birinchi bobida argumentlash va kommunikatsiyaga oid g'oyalar rivojlanishini taxlil qilish asosida argumentlashning mantiqiy kommunikativ nazariyasining g'oyaviy asoslari, uning shu yo'nalishdagi boshqa nazariyalar bilan o'xshash va farq qiluvchi tomonlari, asosiy tushunchalari, qonuniyatlari tadqiq qilindi.

Qadimgi davr faylasuflari kommunikatsiya va argumentlash masalalarini ajratishmagan, notiqlik san'atining nazariy asoslarini yaratishda mantiq ilmiga asoslanishgan. Bu ta'limotlarda muloqot jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy mavqei, bilim darajasi, muloqotdan maqsadini e'tiborga olish zarurligi, nutqni mantiqan izchil, asoslangan bo'lishi, tinglovchining o'zi uchun qanday xulosa chiqarishi fikrga nisbatan ishonchning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan²⁷. Ijtimoiy, falsafiy masalalar bo'yicha erkin fikr almashilganligi va bu jamiyat a'zolari, davlat rahbarlari tomonidan ma'qullanganligi argumentlash va kommunikatsiyaga oid turli qarashlar, ta'limotlarning shakllanishida muhim omil bo'ldi.

Aristotel tomonidan ishlab chiqilgan argumentlash va kommunikatsiya masalalarining nazariy asoslari Sharq peripatetiklarining mantiqiy ta'limotlarida yanada kengaytirildi va yangi g'oyalar bilan boyitildi. O'rta asrlarda islom falsafasi va mantiqida argumentlash va kommunikatsiyaga oid masalalar ikki yo'nalishda tadqiq qilindi: Kaykovus, Yusuf Hos Xojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida til, tildan foydalanish, nutq madaniyati, muloqot odobi va qoidalariga oid masalalar yoritilgan bo'lsa, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy, Nasiriddin Tusiy va boshqa mantiqshunoslar bahslashish (dialektika) va notiqlik (ritorika) san'atiga oid asarlar yozishgan.

Yevropa falsafasida Aristotelning argumentlashga oid ta'limoti dastlab ruxoniylar tomonidan diniy masalalarni dalillashda keng qo'llanilgan bo'lsa, Yangi davrdan boshlab tabiiy ilmiy g'oyalarni asoslashda qo'llanildi. Ilmiy, falsafiy bahslar notiqlik san'atining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab argumentlash va kommunikatsiyaga masalalarini tadqiq qilish yuqori bosqichga ko'tarildi. Adresatni, auditoriyani e'tiborga olish, himoya qilinayotgan nuqtai nazarni qabul qildirish maqsadida unga psixologik va emotsional ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini o'rganish argumentlash bo'yicha zamonaviy xorijiy tadqiqotlarning ustun yo'nalishlaridan hisoblanadi.²⁸

Bugungi kunga kelib, argumentlashni tadqiq qilishda, turli yo'nalish va yondashuvlar shakllangan.²⁹ Argumentlashning mantiqiy kommunikativ nazariyasi

²⁷ Герасимова И.А. Феномен аргументации.// Эпистемология & философия науки, т. XXI, № 3. С. 3-13.

²⁸ Яскевич Я.С. Методология и этика в современной науке: поиск открытой рациональности. -Минск: БГЭУ, 2007.с.51.

²⁹ Важнейшие концепции теории аргументации. Санкт-Петербург, 2006.

shunday yondoshuvlardan biri bo'lib, produktiv nazariyalar turkumiga kiradi va boshqa yondoshuvlarga ham asoslanadi.

Dissertatsiyada argumentlashning mantiqiy kommunikativ nazariyasi boshqa nazariyalardan quyidagi jihatlari bilan farq qilishi ta'kidlanadi: 1. Mantiqdagi psixologizm g'oyasiga asoslanadi. Muloqot jarayonida kommunikativ agentlar (suhbatdoshlar)ning ratsional va emotsional xolatlari birgalikda qaraladi. 2. Argumentlash nutqiy aktlar bilan bog'liq xolda, tabiiy til asosida o'rganiladi. 3. Muloqotda argumentlashning qadriyatlar bilan bog'liqligiga e'tibor qaratiladi. 4. Nomonoton mantiqning ba'zi elementlariga asoslaniladi. 5. Argumentlashda uchraydigan xatolar kommunikantlarning axloqiy qiyofalari (fazilatlar va illatlari) bilan bog'liq xolda mantiq qonunlarining buzilishi nuqtai nazaridan taxlil qilinadi. Argumentlashning mantiqiy kommunikativ nazariyasi pragmadialektik yo'nalishdagi produktiv nazariyalardan biri ekanligi asoslanadi.

Dissertatsiyada argumentlashga berilgan ta'riflar taxlil qilindi³⁰. Bu ta'riflarda asosiy e'tibor kommunikatorning faoliyatiga qaratilgan, kommunikant passiv qabul qiluvchi bo'lib qolgan. Bu xolatni aniqlashtirish maqsadida biz quyidagi ta'rifni taklif qildik: *Argumentlash ijtimoiy, ratsional va emotsional faoliyat bo'lib, uning maqsadi adresatni taklif qilingan nuqtai nazarning maqbul ekanligiga ishonirish orqali uning tushunchalar olamini o'zgartirish va berilgan nuqtai nazarga nisbatan ijobiy xulosasini shakllantirishga erishishdir.*

Berilgan ta'rif argumentlashning kommunikativ faoliyat ekanligi, boshqa odamning tushunchalar olamini shakllantirish yoki o'zgartirishga yo'naltirilganligini va buning uchun inson aqliga va ruhiyatiga ta'sir qiluvchi argumentlardan foydalanilishini yaqqol ifodalaydi. Ushbu ta'rifda resipient tushunchalar olamining o'zgarishi uni qabul qilingan axborotni qayta ishlashi, ya'ni undan qanday xulosa chiqarishiga urg'u beriladi. Bu xolat avvalgi ta'riflarda ko'rsatilmagan.

Nutqiy aktning tushunish (kommunikativ ta'sir) va uni qabul qilish (interaksional ta'sir) bir biriga mos kelishi shart emas. Shuning uchun nutqiy aktning tushunish va uni qabul qilish jihatlari o'rtasida nazariy chegaralashni amalga oshirish zarur. Birinchi xolatda biz nutqiy aktga kommunikativ, ikkinchi xolatda interaksional yondashgan bo'lamiz.

Tinglovchi tomonidan nutqiy aktning tushunish darajasi bilan uni qabul qilish darajasi o'rtasida farq bo'ladi. Tinglovchi tomonidan nutqiy aktning qabul qilinishi uning intersub'ektiv olamiga bog'liq bo'ladi. Uch qiymatli mantiqiy sistemaga

³⁰Москвин В. П. Аргументативная риторика — Ростов на/Д : Феникс, 2008. С. 27. Ивин А. Аргументация в процессах коммуникации. М.-Берлин: Директ-Медиа, 2015. С.77. Лисанюк Е.Н. Логико-когнитивная теория аргументации. Санкт-Петербург, 2015. С.64.

muvofig, kommunikativlik va interaksionallikning o‘zaro bog‘liqligini quyidagicha tasniflash mumkin:

Nutqiy aktning tushunish va qabul qilish	Nutqiy ifodasi
To‘liq tushunish - to‘liq qabul qilish	Tushundim, albatta to‘liq qabul qilaman
To‘liq tushunish - qisman qabul qilish	Tushundim, aytganingizni qabul qilishga harakat qilaman
To‘liq tushunish - to‘liq qabul qilmaslik	Tushundim, lekin buni qabul qilolmayman
To‘liq tushunmaslik - to‘liq qabul qilish	Tushunmadim, lekin fikringizni qabul qilaman
To‘liq tushunmaslik - qisman qabul qilish	Tushunmadim, lekin qabul qilishga harakat qilaman
To‘liq tushunmaslik - to‘liq qabul qilmaslik	Tushunmadim, shuning uchun buni qabul qilolmayman
Qisman tushunish - to‘liq qabul qilish	Tushungandek bo‘ldim, albatta to‘liq qabul qilaman
Qisman tushunish – qisman qabul qilish	Fikringizni oz bo‘lsada tushundim, ulardan ba’zilarini qabul qilaman
Qisman tushunish – to‘liq qabul qilmaslik	Fikringizni oz bo‘lsada tushundim, lekin aytganingizni qabul qilolmayman.

Nutqning kommunikativ va interaksional jixatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik kommunikantning o‘zi uchun qanday xulosa chiqarishiga bog‘liq. Dissertatsiyada kommunikantning o‘zi uchun qanday xulosa chiqarishiga “ibrat” argumenti va “vaziyat” argumentining ta’siri asoslab berildi.

Tadqiqotda, virtual muloqotni taxlil qilish asosida, sinergetikaning “kapalak effekti”ning o‘ziga xos namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Bunga ko‘ra muloqotdagi salbiy nuqtai nazar (qoralab bildirilgan fikr) huddi shunday salbiy fikrlar “bo‘roni” ni boshlab yuboradi. Masalaga bir yoqlama, sub’ektiv yondashish va “oqimga tushib qolish” ushbu xolatning sabablaridan biridir. Lekin muloqotda “kapalak effekti” teskari ta’sirga ega emas.

Virtual kommunikatsiyada nuqtai nazar va argumentlarni bayon qilishda ba’zan fikrlarning aniq ravshan bayon qilinmasligi, to‘liq aytilmasligi, muallif pozitsiyasining beqarorligi “yashirin asoslar” deb nomlanuvchi xolatni yuzaga keltiradi. Virtual muloqotni taxlil qilish muloqot qiluvchilarning odatda bir birlariga savollar berib, fikrlarni aniqlashtirib olishga harakat qilmasliklarini, bir birlarini tushunmasliklarini va nuqtai nazarlarining to‘g‘riligini “shaxsga o‘tish” bilan isbotlashga harakat qilishlarini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning “Argumentlash kommunikativ faoliyat sifatida” deb nomlanadigan ikkinchi bobida argumentlashning kommunikativ faoliyat bilan aloqadorligi tadqiq qilinadi. Nuqtai nazarni argumentlash bilan bog‘liq asosiy tushunchalarining mazmuni ochib beriladi. Argumentlashning mantiqiy va kommunikativ strukturalari qiyosiy taxlil qilinadi.

Dissertatsiyada argumentlashning asosiy elementi bo‘lgan nuqtai nazar tushunchasi sub’ektning atrofidagi voqea-hodisalarni baholashdagi hayotiy pozitsiyasi deb ta’riflanadi. Bu termin “jihat” (aspekt), “qarash”, “dunyoqarash” kabi tushunchalar bilan bog‘liq. Bir muammoga nisbatan bir qancha nuqtai nazarning mavjudligi uni chuqur tahlil qilishga, samarali yechimini topishga imkon beradi. Nuqtai nazarni aks ettirgan mulohaza bilim yoki fikrni ifodalaydi. Bir odam bir vaqtning o‘zida bir narsa haqida ham fikrga, ham haqiqiy bilimga ega bo‘lolmaydi.

Fikrlar e’tiroz bildirilgan va e’tiroz bildirilmagan bo‘ladi. Hech qanday e’tirozga sabab bo‘lmagan fikr ishonchli, e’tiroz bildirishga harakat qilinmagan, tekshirilmagan fikrlar kuchsiz, bildirilgan e’tirozlar tekshirilib, ularning asossizligi aniqlansa, bunday fikr kuchli bo‘ladi. E’tirozga nisbatan e’tirof etilishi ko‘proq bo‘lgan fikrlar haqiqatga yaqin fikr deyiladi. Ko‘p e’tirozga sabab bo‘lgan fikr shubhali fikr deyiladi. Fikrga nisbatan e’tirozlar oshkora yoki yashirin bildiriladi.

Nuqtai nazarning tarkibiy elementlaridan biri asoslardir. Asoslar nuqtai-nazarning tarkibiy elementi sifatida qadriyatlarni, shaxsning tarbiyasi va madaniyatini, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Bular sub’ektning o‘z nuqtai-nazarini asoslash xarakterini belgilab berish bilan birga uning opponenting nuqtai-nazariga bo‘lgan munosabatini ham xarakterlaydi. Ma’lumki, bahs-munozara qanday mavzuda bo‘lmasin, ko‘pincha uning qatnashchilari muhokama qilinayotgan masalaga nisbatan o‘zlarining shaxsiy munosabatlaridan (manfaatlaridan) voz kecha olmaydilar. Umuman olganda, bu tabiiy holat bo‘lib, odamlar o‘zlari befarq bo‘lgan narsalar haqida emas, balki ularni bezovta qilayotgan masala haqida bahslashadilar. Bahsga sub’ektning shaxsiy munosabati argumentlashning borishiga, tezisni isbotlovchi argumentlarga nisbatan ko‘proq ta’sir o‘tkazadi. Aynan bahs-munozaraning natijasiga nuqtai-nazarning asoslari katta ta’sir ko‘rsatib, uning samarali yoki samarasiz bo‘lishini belgilab beradi. Asoslar implitsit yoki eksplitsit bayon qilinadi. Dissertatsiyada implitsit axborotlarni kiritish bilan bog‘liq xolatlar, yashirin asoslarni aniqlash usullari taxlil qilingan.

Dissertatsiyada S.Tulminning fikr yuritish modellari taxlil qilinib, virtual muloqot modellari bilan solishtirilgan. Stefan Tulmin “The Uses of Argument” (1958) kitobida keltirilgan olti komponentdan iborat bo‘lgan argumentlash modelining sxemasi³¹ to‘liq amal qilmasligini uning ba’zi qismlari tushirib qoldirilishi, ob’ektiv ma’lumotlar sub’ektiv munosabatlar bilan almashtirilishi aniqlangan.

Dissertatsiyada, kommunikatsiya agentlari kamdan kam xolatlarda bir birlariga savol berib, fikrlarni aniqlashtirib olishga xarakat qiladilar, deb ta’kidlanadi.

³¹ Toulmin S.E. The Uses of Argument. Cambridge: Cambridge University Press, 2003. P.92.

Ko‘pincha, suhbatdoshining fikriga qarshi chiqib, o‘z nuqtai nazarlarini bayon qiladilar. Ba’zi xolatlarda bahs mavzusini almashtirib, shaxsni muhokama qilishga o‘tadilar. O‘zaro muloqotda bunday xolatlarning bo‘lishi kommunikatsiya agentlarining muloqot qilish madaniyatiga rioya qilmasliklari va fikr mulohazalarni dalillash usullarini yaxshi bilmasliklari tufayli sodir bo‘ladi.

Shaxslararo muloqotda argumentlash ko‘pincha demonstrativ, ya’ni shartli qat’iy xulosa chiqarishning tasdiqlovchi va inkor etuvchi, ayiruvchi qat’iy xulosa chiqarishning tasdiqlab inkor etuvchi va inkor etib tasdiqlovchi moduslari va dilemma ko‘rinishida bo‘ladi. Dissertatsiyada induksiya, abduksiya va analogiya kabi nodemonstrativ argumentlash usullarini taxlil qilinib, Sharq xalqlarining tafakkurlash tarzi ko‘proq deduktiv xarakterga ega, degan xulosaga kelingan.

Muloqot jarayonida nuqtai nazarlar to‘qnashuvi fikrning chinligi va maqbulligi masalasi bilan bog‘liq. Bunda nuqtai nazar yoki uni asoslash uchun keltirilgan dalillar qay darajada chin va ishonchli ekanligini aniqlash nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki muloqotning turli darajalarida muloqot ishtirokchilari tomonidan yolg‘on axborotning har xil ko‘rinishlarda tarqatilishi (namoyon bo‘lishi) jamiyat a‘zolari o‘rtasida noroziliklar, nizolarni keltirib chiqarishi, jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniq. Insonning kundalik tajribasi yolg‘on hamma vaqt ham qisqa muddatli kommunikativ akt emasligini tasdiqlaydi.

Yolg‘on faqat kommunikativ makonda mavjud bo‘ladi. Yolg‘on muloqot jarayonida sof xolda uchramaydi. “Yolg‘on” tushunchasi bilan juda ham keng tarmoqli his tuyg‘ular idrok etiladi. Muloqotda har qanday noto‘g‘ri ma’lumot ham yolg‘on emas, balki inson ataylab boshqalarni aldash uchun ishlatadigan ma’lumotlarga yolg‘ondir. Shuningdek, aldash – ya’ni va’da qilib, uni bajarmaslik, haqiqatni yashirish, aytmasslik, qo‘shib aytish va ikkiyuzlamachilik ham yolg‘onning ko‘rinishlaridir.

Yolg‘onning mavjudligi axborotlarni o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘ladi: 1. Axborot sifat jihatdan o‘zgaradi, ya’ni makon, vaqt bilan bog‘liq xolatlar almashtiriladi. 2. Axborot miqdor jihatdan o‘zgaradi, ya’ni to‘liq berilmaydi yoki ortiqcha ma’lumotlar beriladi. 3. Axborot ikki xil talqin qilish mumkin bo‘lgan ko‘rinishda beriladi. 4. Noo‘rin axborot beriladi, ya’ni mavzuga bo‘lgan munosabatni avvaldan yo ijobiy yo salbiy tomonga o‘zgartiradigan axborot beriladi. 5. Yolg‘on axborot beriladi.

Ijtimoiy ongda yolg‘on turli ko‘rinishlarda nomoyon bo‘ladi. Shunga mos ravishda uning milliy tillarda ifodalanishi ham turlichadir. Dissertatsiyada o‘zbek tilida yolg‘onning nutqda ifodalanishi batafsil taxlil qilindi. Haqiqat va yolg‘on nutqning atributlaridir, buyumlarning emas. Nutq bo‘lmagan joyda haqiqat ham yolg‘on ham bo‘lmaydi. Dissertatsiyada Ya.Lukasevichning uch qiymatli mantiqiy sistemasiga asoslanilib, argumentlar chin yoki yolg‘on bo‘libgina qolmay, noaniq qiymatga ega bo‘lishini ta’kidlanadi. Argumentlarning chinlik qiymati ularning maqbulligi bilan bog‘liq. Argumentlarning chinligi ularning maqbulligini

kafolatlamagani kabi, ularning yolgʻonligi nomaqbulligini bildirmaydi³².

Dissertatsiyaning “Argumentlash va qadriyatlar” deb nomlangan uchinchi bobida nuqtai nazarning shakllanishi, asoslanishi va qabul qilinishiga qadriyatlarining taʼsiri tadqiq qilindi. Argumentlash jarayonida qadriyatlar nuqtai nazarda, yaʼni bahs mavzusida va nuqtai nazarni asoslash uchun keltirilgan argumentlarda aks etadi. Shaxslararo muloqotda qadriyatlar yo nuqtai nazarni tashkil etuvchi element sifatida yoki argument sifatida qoʻllanadi.

Dissertatsiyada, muloqot ishtirokchilarining qadriyatlar tizimini aniqlashda kontent taxlil usulini qoʻllash kerakligini taʼkidlanadi. Bu usulda eng avvalo suhbatdoshlarning nutqlarida qadriyatlarni ifodalovchi tushunchalarning soni aniqlanadi. Masalan, biron masala boʻyicha suhbatlashganda suhbatdoshingiz ijobiy (men bilaman, men xal qilaman...) yoki salbiy (men noroziman, men xafa boʻldim...) fikrlarni “men” bilan bogʻliq xolda bildirsa, demak, uning qadriyatlar sistemasi egoistik asosga qurilgan boʻladi. Bunday odamlar bilan bahslashib boʻlmaydi, chunki ular faqat oʻzlarining nuqtai nazarlarini eng toʻgʻri deb biladilar, oʻzlari uchun maʼqul boʻlgan fikrlarni eʼtirof etadilar, boshqalarning fikrlarni tan olmaydilar. Bahs jarayonida suhbatdoshining shaxsiyatini kamsitishdan ham tortinmaydilar.

Argumentlashda qadriyatlarining oʻrni va rolini toʻgʻri talqin qilish uchun bu tushunchaning taʼrifini aniqlash zarur. Falsafiy adabiyotlarda “qadriyat” tushunchasiga berilgan koʻplab taʼriflar mavjud. Dissertatsiyada oʻzbek faylasuf olimi Q. Nazarovning qadriyat tushunchasiga bergan taʼrifi asos qilib olingan³³. Qadriyat – bu subʼektning maʼlum bir ehtiyojini qondiruvchi obʼektga xos xususiyatni ifodalaydigan munosabatning xarakteristikasidir. Qadriyatlar baholash bilan bogʻliqdir. Yakka shaxs, guruh, jamoa, ijtimoiy institutlar, jamiyat baholash subʼekti hisoblanadi. Argumentativ diskursda baholash subʼektining shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, baholanuvchi obʼektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi aks etadi.

Shuningdek, baho yakka shaxsning maʼlumoti, kasbi, yashash tarzi, isteʼdodi kabilar bilan ham chambarchas bogʻliq. Baholar ijobiy yoki salbiy mazmunga ega boʻladi va oʻzaro farq qiladi. Ijobiy baholashda baholash obʼektiga xos xususiyatlar haqida maʼlumot berilganda maʼqullash sezilib turadi. Bunda ifodalanayotgan fikr subʼektning baholash uchun asos boʻlgan faktlarga, aytilgan propozitsiya muhimligiga ishonchini oʻzida aks ettiradi. Salbiy baholashda esa uning aksi kuzatiladi. Bunda maʼqullamaslik, norozilik, xatolikka ishora sezilib turadi. Baho tushunchasi argumentativ diskursning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyada axloqiy qadriyat va axloqiy qadriyatlarni argumentlash tushunchalari qoʻllanilgan. Tadqiqotda qadriyat va axloq tushunchalarining maʼno va mazmunidan kelib chiqqan xolda *“axloqiy qadriyatlar - shaxs, ijtimoiy guruh va*

³² Лисанюк Е.Н., Файзиходжаева Д.Э. Ложный аргумент, три лжеца и эффективное завершение спора // Философский журнал, №1, 2022. С. 85-101.

³³ Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). Т.: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004.276.

jamiyatning atrof voqelikdagi ob'ektlarga nisbatan inson manfaatlari va ehtiyojlariga mos munosabatlarning qamrab olinishini axloqiy norma, ideal, talab, maqsadlarda aks ettirib, ijobiy qiymatini ifodalaydigan baholash mezonini va usulini ifodalovchi tushunchadir" degan ta'rif taklif qilinadi.

Ushbu ta'rifga asoslangan xolda "Axloqiy qadriyatlarni argumentlash umuminsoniy, milliy, ijtimoiy, shaxsiy axloqiy norma, ideal, talab, maqsadlarning baholanishiga nisbatan auditoriyaning ijobiy munosabatini shakllantirish orqali ularni shu baholarning haqqoniylikiga ishonitirish, qabul qilishlariga va amaliy faoliyatda qo'llashlariga erishishdir" degan yana bir ta'rifni ilmiy muomalaga kiritish taklif qilingan.

Axloqiy qadriyatlarni argumentlashda universal argumentlar bilan bir qatorda kontekstual argumentlardan (urf odatlar, intuitsiya, e'tiqod, avtoritet, sukut saqlash, misol keltirish va b.) ham keng miqyosda foydalaniladi. Axloqiy qadriyatlar diniy, falsafiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy qadriyatlar bilan tutash bo'lganligi bois, bu sohalariga oid argumentlashda ham axloqiy qadriyatlar argument vazifasini bajaradi.

Axloqiy qadriyatlarni argumentlashda jamiyat a'zolari o'rtasidagi biron bir masala yuzasidan axborotlar kelishuvining mavjudligi muhim omil hisoblanadi. Axborotlar kelishuvi konseptining ilmiy muomalaga kiritilishi insonlar o'rtasidagi axloqiy aloqalarni tushunishga yangicha yondashuvni shakllantirdi. Axloqiy munosabatlarni o'rganishda urg'u kommunikatoridan kommunikantga (qabul qiluvchiga) o'tdi va axloqiy mulohazalarning asosiy mavzusini shaxslararo munosabatlar tashkil etadigan bo'ldi.

Axloqning hukmron madaniyatdagi narrativlarga (rivoyatlarga) bog'liqligi axloq bilan mantiqning yaqin aloqadorlikda ekanligidan dalolat beradi. Narrativ orqali inson o'zi tanlagan pozitsiyasini verifikatsiya va falsifikatsiya qilishi mumkin. Kompyuter o'yinlari, teleseriallar, jangari filmlar va fantastik multfilmlar bugungi kunning narratividir. Jamiyatimiz a'zolarining juda katta qismi shu reallikda yashaydilar, ularning ongini shu reallik shakllantirmoqda, virtual olam simulyakrlari jamiyatimizning axloqiy ideallari, normalariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy axloqiy imperativlarning zamonaviy axloqiy imperativlarga transformatsiyasi amalga oshmoqda. An'anaviy axloqqa xos bo'lgan kamtarlik o'rniga o'zini reklama qilish, xalollik o'rniga xaromxo'rlik (aldash), xushmuomalalik o'rniga qo'rslik, beg'arazlik o'rniga manfaatdorlik maqtalmoqda. Ijtimoiy sohada takomillashish, yuqori darajalarga ko'tarilish uchun an'anaviy axloqiy imperativlarga deyarli amal qilinmayapti. Hozirgi kunda jamiyat ilgari hech qachon tan olmagan insonning xudbin xulq-atvor huquqi zamonaviylik sifatida e'tirof qilinmoqda. Bu o'z navbatida zamonaviy shaxs oldiga ko'plab axloqiy dilemmalarni qo'yimoqda.

Axloqiy dilemma bu odam har qanday holatda axloqiy va/yoki boshqa ko'rsatmalarni buzadigan tanlov qilishi kerak bo'lgan vaziyatdir. Oddiy qilib aytganda, bu insonning qadriyatlari va ijtimoiy me'yorlar ziddiyatga kirishadigan tanlovdur. Axloqiy dilemmani xal qilishning algoritmi mavjud bo'lib, unga ko'ra:


muammoli axloqiy dilemma aniqlanadi; dilemmaning sabablari va boshqa yechimlari izlanadi; tanlangan yechimning ijobiy va salbiy tomonlari solishtirilib, qaror qabul qilingan taqdirda nimadan voz kechish kerakligi aniqlanadi; tanlangan yechim axloq talablariga mos bo'lishi nuqtai nazaridan baholanadi.

Axloqiy dilemmalar ularni keltirib chiqaruvchi asoslariga ko'ra: majburiyat, ta'qiq, sukut saqlash, e'tiqod, maqsad va vosita o'rtasidagi tanlov, vaqt tanloviga bo'linadi. Yuqoridagi dilemmalarda "eng kam zarar keltirishi" hisobga olinib, qaror qabul qilinadi, ya'ni tanlov sub'ektning qadriyatlar tizimi ierarxiyasiga (yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalari va manfaatiga) asoslaniladi.

Bu axloqiy tanlovdur. Bu tanlovda afzalliklar mantig'i qoidalari namoyon bo'ladi. Qadriyatlar ierarxiyasida yuqori pog'onada turgan qadriyat tanlov natijasini belgilab beradi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra ularning axloqiy qadriyatlar pog'onasida rostgo'ylik (72%), xalollik (61,4%), mehr oqibat (57,2%) yuqori o'rinni egallashi aniqlandi. Kamtarlik (35,1%), hayolilik (12,8%), shirinsuhanlik (7,6%) quyi o'rinlarni egalladi. (1 diagramma)

1-diagramma.

7. Одамлардаги қайси ахлоқий фазилатларни кўпроқ қадрлайсиз? (3 та жавобни танланг)
407 ответов



Demak, axloqiy qadriyatlar nuqtai nazar yoki argument bo'lganda eng avvalo ularning chin yoki yolg'onligi fikrlar o'rtasidagi tafovutni keltirib chiqaradi. O'zaro muloqot va argumentlashda hayolilik va hushmuomalalikka kamdan kam rioya qilinadi.

Axloqiy dilemmalarning yechimi uchun keltiriladigan argumentlar aqlga (ratsional) yoki his tuyg'ularga (empirik) asoslanadi. Argumentlarni tanlashga sub'ektning shaxsiy tajribasi, manfaatlari, bilimi va ruhiy xolati ta'sir ko'rsatadi. Tanlov ko'proq aqlga emas, hissiyotlarga asoslanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Tanlov qanday amalga oshirilishidan qat'iy nazar rad etilgan alternativa bilan bog'liq nohush kechinmalar (dilxiralik, shubha) bo'ladi.

Argumentlash jarayonida axloqiy qadriyatlarning tasdiqlanishi (ijobiy baholanish) yoki inkor qilinishi (salbiy baholanishi), bahslashuvchi tomonlarning xulqi, odobi, axloqiy qarashlari tinglovchilar va bahslashuvchilarning o‘zi uchun ham ibratdir. Bunda “agar u shunday qilsa, demak bu mumkin ekan va men ham shunday qilaman” degan tamoyil amal qiladi.

Dissertatsiyada diniy qadriyatlar tushunchasiga respublikamiz faylasuflari va islomshunos olimlari tomonidan aniq ta’rif berilmaganligi ta’kidlanadi. Tadqiqot doirasida bu tushunchaga quyidagicha ta’rif berildi: *diniy qadriyat insonlar jamoasining diniy e’tiqod, diniy ibodat, diniy marosim va odatlarga, diniy axloq normalariga bo’lgan munosabatini har bir dinning muqaddas kitoblari va payg‘ambarlarning ko‘rsatmalariga muvofiq belgilovchi baholash mezonini va usulini ifodalovchi tushunchadir.*


Ushbu ta’rifni nafaqat islom dini, balki boshqa dunyoviy dinlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Dissertatsiyada yuqoridagi ta’rif asosida diniy qadriyatlarni argumentlash degan tushuncha ham ta’riflangan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Bunga ko‘ra: *Diniy qadriyatlarni argumentlash har bir dinning muqaddas kitoblari va payg‘ambarlarning ko‘rsatmalariga muvofiq diniy e’tiqod, diniy ibodat, diniy marosim va odatlarning, diniy axloq normalarining baholanishiga nisbatan auditoriyaning ijobiy munosabatini shakllantirish orqali ularni shu baholarning haqqoniyligiga ishonitirish, qabul qilishlariga va amaliy faoliyatda qo‘llashlariga erishishdir.*

Dissertatsiyada yuqoridagi ta’riflar islom dini qadriyatlari nuqtai nazaridan asoslangan. Islom dini aqida, shariat va tariqatga oid ilohiy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Islom aqidasi ko‘ra, har bir musulmon Allohga, ilohiy kitoblarga, payg‘ambarlarga, farishtalarga qiyomat kuniga va qadar (taqdir) Allohdan ekaniga ishonishi shart. Shariat dinning amaliy qismi bo‘lib, u ibodat, muamalat va huquqqa bo‘linadi. Tariqat esa ruhiy va axloqiy tarbiyani o‘z ichiga oladi³⁴. Islomiy qadriyatlarni yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan xolda uch guruhga bo‘lish mumkin: islomiy aqida bilan bog‘liq qadriyatlar; shariat bilan bog‘liq qadriyatlar; tariqat bilan bog‘liq qadriyatlar.

So‘nggi yillarda ibodat masalalari, musulmonning tashqi ko‘rinishi, turli diniy va dunyoviy marosimlardagi ishtiroki masalasi eng ko‘p bahslarga sabab bo‘lmoqda. “Talaba yoshlarning axloqiy va diniy qadriyatlari” mavzuida o‘tkazilgan so‘rovnomada talabalar birinchi navbatda ibodatni ya’ni nomoz o‘qish, ro‘za tutishni (93,9%), undan so‘ng diniy bilim olish (54, 3%), diniy urf odatlarni bajarish (51,4%),) iqtisodiy masalalarda diniy huquqiy talablarga rioya qilish (35,6%)ni belgilagan bo‘lsalar, dinga muvofiq kiyinishni 31,7% talaba belgilagan (2 diagramma).

³⁴ Ислам. Энциклопедия: А-Х /Шайх Абдулазиз Мансур таҳрири остида. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. 135-б.

12. Сиз учун, диний қадрият сифатида қуйидагилардан қайсилари энг муҳим? (3 та жавобни танланг)
407 ответов



So'rovnomaning natijalari O'zbekiston musulmonlar idorasi Koll-markazi va Fatvo.uz sayti hamda telegram tarmog'idagi SavollarMuslimUzBot ga kelib tushgan savollarning monitoringi bilan deyarli o'xshash. Monitoring natijalariga ko'ra berilgan savollarning 60% dan ortig'i ibodat bilan bog'liq savollardir. Demak, talabalar uchun ibodat bilan bog'liq qadriyatlar ko'pincha argument yoki nuqtai nazar vazifasini bajaradi.

Islomiy qadriyatlar bir biri bilan tutashib ketadi va musulmon insonning qadriyatlar tizimida islomiy aqida bilan bog'liq qadriyatlar qolgan qadriyatlarning tayanch nuqtasi hisoblanadi. Islomiy qadriyatlar bahs munozarada ikki xolatda qo'llanadi: 1) yo nuqtai nazarni ifodalaydi yoki 2) nuqtai nazarni asoslovchi argument, dalil bo'lib keladi. Dissertatsiyada diniy va axloqiy qadriyatlarning argument sifatida to'g'ri tanlanishi nuqtai nazarni ma'qullash, uni qabul qilish va unga mos xarakat qilishga zamin yaratadi deb xulosa qilinadi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Kommunikativ modellarda argumentlash bilan bog'liq xatolar**" deb nomlanadi. Ushbu bobda kommunikativ modellarning turlari o'rganilib, ularda kelib chiqadigan nizolarning mantiqiy asoslari tadqiq qilinib, kelishuvlarning turlari aniqlandi va ideal argumentlash qoidalari taklif qilindi.

Ma'lumki eng birinchi kommunikativ modelni Aristotel ta'riflab bergan va u chiziqli model deb nomlangan. Hozirgi kunda shaxslararo muloqot nochiziqli kommunikativ modellar shaklida amalga oshmoqda. Intersub'ektiv muloqotda barcha kommunikantlar axborot qabul qilish va almashish maqsadida ishtirok etadi. Bunday muloqot natijasi konsensus, ya'ni kelishuv bo'lib, unda K_x va K_u (K -kommunikantlar) ma'lum bir A (A -axborot) xolatni bir xil baholaydilar.

K_x A ekanligiga va K_u ham buni shunday tushunishiga ishonadi. O'z navbatida K_u A ekanligiga va K_x uni shunday tushunishiga ishonadi. Har biri o'zi ishongan narsaga boshqasi ham ishonadi deb o'ylaydi va o'zaro kelishuvga keladi. Bu yagona kognitiv makonni shakllantiradi va kommunikantlarning bir-birlarini tushunishlari uchun muhim omil hisoblanadi.

KELISHUV (K_x, K_u, A) \implies ($K_x A \wedge K_u A$).

(“ \wedge ”- “va” bog‘lovchining simvolik belgisi.)

Dialog, muloqotda yagona kognitiv makonning shakllanishi kommunikantlarning bir-birining fikriga bo‘lgan ishonchning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Kommunikantlarning bir-birining fikriga bo‘lgan ishonchi kognitsiyani, ya’ni suhbatdoshining intensional xolati haqidagi bilimni xosil qiladi. Shunday xolatlar bo‘ladiki, kommunikantlar mavjud xolatni turlicha tasvirlaydilar va ularning tasviri bir-biriga mos kelmaydi. O‘rtada ishonchsizlik paydo bo‘ladi.

Kommunikantlarning har biri boshqasining fikrini biladi va unga qo‘shilmaydi. Bunday xolatda kelishuv amalga oshmaydi, u yoki bu tomon boshqasini o‘z fikriga ishontirishga xarakat qiladi va kognitiv makon o‘zgaradi.

Quyida ushbu xolat formallashgan ko‘rinishda tasvirlanadi:

K_x va K_u kommunikatsiya agentlari, A va S ularning fikr mulohazalari.

Muloqot jarayonida K_x biladiki, K_u mavjud xolatni A deb emas, S deb tasvirlayapti. $K_x K_u$ ni mavjud xolat S emas, balki A ekanligiga ishontirishga xarakat qilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$(K_x, K_u, A) \implies (K_x A \wedge K_u, S) \wedge (K_x A \wedge K_u, A)$$

K_u o‘z navbatida S ekanligiga K_x ni ishontirishga xarakat qiladi.

$$(K_x, K_u, A) \implies (K_x A \wedge K_u, S) \wedge (K_u, S \wedge K_u, S)$$

Har ikki tomon ham o‘z fikrlarini argumentlashi kerak bo‘ladi.

Umuman olganda, kelishuv, konsensus muloqotning yagona kognitiv makonini yaratishning dastlabki sharti hisoblanadi. Bu esa muloqotning davom ettirilishini ta’minlaydi. Bunday argumentlashda fikr-mulohazalarning chin yoki haqiqatga yaqin bo‘lishi talab qilinadi. Suhbatdoshlarning suhbat mavzusiga bo‘lgan munosabatlari bir biriga mos kelishi yoki farqlanishi mumkin. Suhbat jarayonida, tomonlarning fikrlari mos kelmasa, o‘rtada nizo paydo bo‘ladi, agar mos kelsa tomonlar o‘zaro kelishadi.

Dialog ishtirokchilari o‘rtasidagi kelishuv haqiqiy yoki soxta bo‘lishi mumkin. Dissertatsiyada soxta kelishuvning uch turini ko‘rsatilgan:

1. Suhbatdoshlardan biri mavzu bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lmasa yoki uning mohiyatini tushunmasa, suhbatdoshini shu masala bo‘yicha bilimdon deb o‘ylab, uning fikriga qo‘shiladi. Buni bilimsizlik tufayli kelishuv desak bo‘ladi.

2. Ortiqcha uyatchanlik tufayli kelishuv. Turkiy xalqlarning tilida bu “andisha” deb nomlanadi. Bunday xolatda suhbatdoshlardan biri masalani boshqasidan kam bilmaydi (o‘zining nuqtai nazariga ega) lekin suhbatdoshining yoshi, mavqei, qarindoshchilik munosabatlari va b.ni xurmat qilgan xolda uning fikriga qo‘shiladi.

3. Yolg‘ondan rozi bo‘lib kelishuvga kelinadi. Bunday kelishuvga uch xil xolat sabab bo‘ladi:

- keraksiz bahsni to‘xtatish va suhbatdoshidan qutilish uchun;
- o‘zining haqiqiy maqsadini yashirib, vaqtdan yutish uchun;
- suhbatdoshining dalillari manfaatlariga xalal bermagani (zid, qarshi emasligi) yoki boshqa shaxsiy sabablari tufayli kelishuvga kelinadi.

Shunday qilib, har ikki tomon qo'yilgan masalaning yechimi (savolning javobi)ni to'g'ri yoki ishonchli deb e'tirof etishi haqiqiy kelishuv hisoblanadi. Demak, argumentlashning dialog, bahs, munozara, polemika kabi kommunikativ modellarida yuzaga keladigan nizolar asosan "kim haq?" degan savolning qo'yilishi sabab vujudga keladi.

Muomalada nizolarning kelib chiqishiga eng avvalo axloq-odob normalariga amal qilmaslik (manmanlik, takabburlik, boshqalarni hurmat qilmaslik) sabab bo'ladi. Shuningdek, quyidagi omillar ham sezilarli ta'sir qiladi: anglashilmovchilik (fikrni aniq bayon qilmaslik); boshqaning fikrini qabul qilmaslik (faqat o'zini haq deb hisoblash), o'zaro manfaatlar to'qnashuvi; insonning ruxiy xolati (jahldor, qaysar) va munosabati (simpatiya, antipatiya); milliy tafakkurlash tarziga xos xususiyatlar (kattalarga gap qaytarmaslik) va boshqalar. Yuqoridagilar intellektual nuqsonlarning bir ko'rishi bo'lib, argumentlashda xatolarni keltirib chiqaradi.

Argumentlash jarayonida uchraydigan xatolar birinchi bo'lib Aristotel tomonidan o'rganilgan va tavsiflangan³⁵. Sharq peripatetiklaridan Farobiy, Ibn Sino kabi mantiqshunos olimlar Aristotel g'oyalarini takomillashtir-ganlar³⁶. Ingliz faylasufi Frensis Bekon idollar (sharpalar) bilan bog'liq xatolarni ta'riflab berdi³⁷. Djon Lokkning insonga murojaat qiluvchi argumentlar haqidagi g'oyalari argumentlash bilan bog'liq xatolar ro'yxatini yanada kengaytirdi³⁸. U kamtarlikka (ad verecundiam), bilimsizlikka (ad ignorantiam) va sog'lom aqlga (ad judiciam) dalolat qilish xatolarini ko'rsatib berdi. Keyinchalik bular *insonga murojaat qiluvchi xatolar* (argumentum ad hominem) deb nomlanuvchi va opponentning shaxsiga xujum qiluvchi argumentlar guruhini shakllantirdi. Argumentlashda uchraydigan xatolar A.Shopengauerning "Eristik dialektika" asarida ham batafsil yoritilgan³⁹.

Hozirgi kunda bu guruhni tashkil etuvchi xatolar soni ortib bormoqda. Argumentlashdagi xato argumentativ diskursdagi nomukaamal xarakterlar deb talqin qilinmoqda⁴⁰. Xorij olimlaridan Frans van Yeemerен, Grootendorstlar ratsional diskussiyani olib borish qoidalarining(o'zini tutish kodeksi) buzilishini argumentlashdagi xato deb, ta'kidlaydilar⁴¹. Duglas Uoltonning pragmatik nazariyasiga ko'ra, xatolar nafaqat dialog qoidalari va Grays kooperatsiya prinsipining buzilishi bo'lib qolmasdan, argumentlash sxemalarining ham buzilishidir⁴².

³⁵ Аристотель О софистических опровержениях.// Сочинения в 4-х т., т. 2. М.: Мысль, 1978.

³⁶ Аль-Фараби Софистика// Логические трактаты. –Алма-Ата.,1973. Абу Али Ибн Сина Софистика// Соч. Т. 7. Душанбе.: Дониш. 2019.

³⁷ Бэкон Ф. О достоинстве и приумножении наук//Соч. в 2-х т. Т.1. Москва: Мысль, 1970.

³⁸ Локк Дж. Об управление разумом//Логика и риторика: хрестоматия. -Минск: ТетраСистемс, 2007.

³⁹ Шопенгауэр А. Эристическая диалектика. Полн. собр. соч. — М., 1910. — Т. IV.

⁴⁰ Франс Х. Ван Еемерен. Ошибки в аргументации.//Важнейшие концепции теории аргументации. СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2006. С.162

⁴¹ Франс Х. Ван Еемерен. Ошибки в аргументации.//Важнейшие концепции теории аргументации. СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2006. С.162

⁴² Walton D. A Pragmatic Theory of Fallacy, 1995.

Mantiqqa oid o'quv adabiyotlarida argumentlash jarayonida uchraydigan xatolar uning strukturasi mos tasniflangan: tezis, argument qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan va isbotlash usuli (demonstratsiya) da uchraydigan xatolar.

Dissertatsiyada eng so'nggi ilmiy manbalarda argumentlashdagi xatolar epistemik fazilatlar (virtue epistemology - epistemologiya dobrodeteley) tushunchasi bilan bog'liq xolda talqin qilinayotganligiga ta'kidlanadi. Kommunikatsiya agentlari ma'lum bir axloqiy fazilatlarga va aqlga (intellektga) ega. Muloqot jarayonida kommunikatsiya agentlarining intellektual fazilat (intellektualnye dobrodeteli)lari (xolislik, ma'suliyatlilik, xayrihohlik va b.) va intellektual nuqson (intellektualnye poroki)lari (qo'pollik, kibr, faqat o'z fikrini to'g'ri deb bilish va b.) namoyon bo'ladi⁴³. Dissertatsiyada kommunikatsiya jarayonidagi argumentlashdagi xatolar argumentlashning strukturasi mos xolda va intellektual nuqsonlar asosida tasniflangan.

Argumentlash nazariyasida muloqotdagi nizolar va xatolarning oldini olish maqsadida "Ideal argumentator va ideal argumentlash qanday bo'lishi kerak?" degan masala qo'yilgan. Dissertatsiyada musulmon olamida "Hujjatul-islom" unvoni bilan mashhur bo'lgan ilohiyotshunos olim va faylasuf Abu Homid G'azzoliyning „Ixyou ulumid-din“ asarining birinchi „Ilm kitobi“idagi munozaraga oid qoidalari bilan G'arb olimlaridan Pol Graysning qarashlarini taqqoslangan⁴⁴.

Abu Homid G'azzoliy va Pol Grayslarning bahslashish qoidalari Sharq va G'arb tafakkuridagi o'ziga xos tomonlarni aniqlashga yordam beradi. Sharq tafakkurida munozaraga ko'proq axloqiylik prinsiplari nuqtai nazaridan yondashish xos bo'lsa, G'arb tafakkuriga fikrlarni aniq ifodalash prinsipi xos. Lekin har ikkisida ham munozara maqsadi, ya'ni haqiqatni aniqlash va fikrga nisbatan ishonchni shakllantirish maqsadi umumiydir.

Yuqoridagi fikr mulohazalar va olimlarning tadqiqotlarini o'rganish natijasida muloqotni samarali tashkil etishga qo'yiladigan quyidagi talablarning ko'rsatish mumkin:

1. Argumentlarning konkretlilik prinsipi.
2. Rerezentativlik prinsipi.
3. Nuqtai nazar va argumentlar o'rtasidagi munosabatning mantiqiylik prinsipi.
4. Argumentlashni qo'llashning mantiqiy savodlilik prinsipi.
5. Argumentlashning emotsionallik prinsipi.
6. Argumentlashning ichida tushunchalarning o'zaro mutanosiblik prinsipi.
7. Argumentlashning ishonchlilik prinsipi.
8. Argumentlashning maqbullik prinsipi.

Tadqiqotning xulosasiga ko'ra, jamiyat a'zolarining yuqoridagi qoidalarga amal qilishi, bahslashish madaniyatining shakllantirilishi ular o'rtasida vujudga keladigan ko'plab nizolarning oldini olishga va shaxslararo munosabatlarning uyg'unlashuviga olib keladi.

⁴³ Aberdein A. The vices of argument // Topoi. 2016. Vol. 35, no. 2. P. 413–422.

⁴⁴ Имом Абу Хомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал- Ғаззолий. Ихёу улумид-дин. Илм китоби. Т.: Мовароуннахр, 2003. 106-108-б. Грайс Г.П. Логика и речевое общение. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16. Лингвистическая прагматика. М.:Прогресс, 1985.

XULOSA

Argumentlashning mantiqiy kommunikativ nazariyasiga oid tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Argumentlash va kommunikatsiyaga oid g'oyalar taraqqiyotining retrospektiv taxliliga ko'ra argumentlashning epistemologik jihatlari: haqiqat va yolg'on, ratsionallik va irratsionallik, ekstensiv va intensiv bilim masalalari hamma davrlarda faylasuf-mantiqshunos olimlar tomonidan tarixiy-madaniy va ijtimoiy kontekstdan kelib chiqqan xolda o'rganilgan. Asosiy e'tibor tushuntirish va tushunish, asoslash va ishontirish, xulosa chiqarishning mantiqiy vositalariga qaratilgan.

2. Argumentlash verbal, ijtimoiy va ratsional faoliyat bo'lib, uning maqsadi, adresatni taklif qilingan nuqtai nazarning maqbulligiga ishontirish uchun, bir qancha mulohazalarni ilgari surish orqali uning tushunchalar olamini o'zgartirish va berilgan nuqtai nazarga nisbatan o'z shaxsiy xulosasini shakllantirishga erishishdir.

3. Nutqiy akti tushunish (kommunikativ effekt) va uni qabul qilish (interaksional effekt) shaxslararo kommunikatsiyaning muhim jihati bo'lib, ularning o'zaro mutanosibligi ijtimoiy munosabatlarning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun nutqiy akti tushunish va uni qabul qilish o'rtasida nazariy chegaralashni ko'p qiymatlilik prinsipiga ko'ra amalga oshirish zarur. Muloqotning ratsional va noratsional jihatlariga ko'ra nutqiy akti tushunish darajasi bilan uni qabul qilish darajasiniing bir-biridan farq qilishi kommunikativ agentlar tafakkur tarzi kognitiv konstruksiyasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

4. Global internet tarmog'ining imkoniyatlari kommunikatsiyaning turli darajalarida muloqotni tashkil etishga, kommunikantlarning dunyoqarashiga konstruktiv yoki destruktiv ta'sir o'tkazib, ularning tushunchalar olamining transformatsiyasiga olib keldi. Bu jarayonda sinergetikaning noxiziqlik (bir axborotga har xil nuqtai nazardan yondashish), ko'p funktsionallik (muloqot funksiyalari, usullari, natijalarining turli tumanligi) prinsiplari va namoyon bo'ladi.

5. Kommunikativ jarayonlarda argumentlar chinlik qiymatiga ko'ra chin, yolg'on va noaniq (haqiqatga o'xshash) bo'ladi. Chin argumentlarga ishonmaslik va qabul qilmaslik bilan bir qatorda, yolg'on va noaniq argumentlarga ishonish va qabul qilish kommunikativ jarayonlarga xosdir. Argumentlarning chin yoki yolg'onligi muhim emas, muhimi uning maqbul bo'lishi, ya'ni tinglovchi tomonidan qabul qilinishidir. Tinglovchining "o'zi uchun" tanlagan argumentlari argumentlash jarayonining qanday yakunlanishini belgilab beradi.

6. Mantiqda yolg'on mulohaza mazmunining real voqelikka mos kelmasligini bildirsa, argumentlash nazariyasida esa yolg'on suhbatdoshida olam manzarasining buzilgan ko'rinishini shakllantirishga qaratilgan interaksiya deb ta'riflanadi. Shaxslararo muloqotda yolg'on buzib ko'rsatish va sukut saqlash orqali namoyon bo'ladi. Sukut saqlanganda yolg'onchi chin axborotni yashiradi, lekin yolg'on axborot bermaydi. Buzib ko'rsatishda yolg'onchi haqiqatni yashiribgina qolmasdan, yolg'on

axborotni chin deb taqdim qiladi. Kommunikatsiya jarayonida bularning har ikkisi birgalikda uchrashi mumkin.

7. Shaxslararo muloqotda nuqtai nazar va argumentlar axloqiy va diniy qadriyatlar ta'sirida shakllanadi va tanlanadi. Axloqiy qadriyatlar - shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyatning atrof voqelikdagi ob'ektlarga nisbatan inson manfaatlari va ehtiyojlariga mos munosabatlarning qamrab olinishini axloqiy norma, ideal, talab, maqsadlarda aks ettirib, ijobiy va salbiy qimmatini belgilaydigan baholash mezonini ifodalovchi tushunchadir. Axloqiy qadriyatlarni argumentlash umuminsoniy, milliy, ijtimoiy, shaxsiy axloqiy norma, ideal, talab, maqsadlarning baholanishiga nisbatan auditoriyaning ijobiy munosabatini shakllantirish orqali ularni shu baholarning haqqoniyligiga ishonirish, qabul qilishlariga va amaliy faoliyatda qo'llashlariga erishishdir.

8. Diniy qadriyat insonlar jamoasining diniy e'tiqod, diniy ibodat, diniy marosim va odatlarga, diniy axloq normalariga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini har bir dinning muqaddas kitoblari va payg'ambarlarning ko'rsatmalariga muvofiq belgilovchi baholash mezonini ifodalovchi tushunchadir. Diniy qadriyatlarni argumentlash har bir dinning muqaddas kitoblari va payg'ambarlarning ko'rsatmalariga muvofiq diniy e'tiqod, diniy ibodat, diniy marosim va odatlarning, diniy axloq normalarining baholanishiga nisbatan auditoriyaning ijobiy munosabatini shakllantirish orqali ularni shu baholarning haqqoniyligiga ishonirish, qabul qilishlariga va amaliy faoliyatda qo'llashlariga erishishdir.

9. Muloqotda nizolarning kelib chiqishiga dunyoqarashga oid, axloqiy, ruhiy, siyosiy omillar bilan bir qatorda mantiqiy omil ham ta'sir ko'rsatadi. Nizolarning kelib chiqishida mantiqiy omilning ta'siri quyidagi xolatlar bilan belgilanadi: fikr salbiy bo'lganda, yakkalik haqidagi mulohaza umumiylik sifatida va aksincha umumiylik haqidagi mulohaza yakkalik sifatida qabul qilinadi. Fikr ijobiy bo'lganda bunday qabul qilinmaydi. Muhokama predmetini bilmasdan, tushunmasdan bahsga kirishish va noto'g'ri fikr bildirish. Bir tushunchani (faktni) har xil talqin qilish. Yashirin asoslarni tahminlab, aytilmagan fikrlarni aytilgan fikr sifatida qabul qilish. Xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik. Noto'g'ri, g'arazli argumentlash. O'rinsiz tanqid. Bunday tanqid xaqorat deb qabul qilinadi va shunga mos salbiy munosabatni shakllantiradi. Dialogda nizolarning kelib chiqishiga har ikki tomon ham mas'uldir.

10. Argumentlash jarayonida "o'zi uchun argumentlash" amalga oshadi, ya'ni argumentlovchining dalillari bilan bir vaqtda tinglovchilarning mavzuga, argumentlovchiga, vaziyatga bog'liq bo'lgan o'z dalillari borligi argumentlash jarayonining samarali yoki samarasiz bo'lishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Tezisga nisbatan argumentlovchining dalili va respientning o'zi uchun bo'lgan dalili bir xil bo'lishi, har xil bo'lishi va bir-birini to'ldirishi, qisman mos kelishi yoki bir-birini inkor qilishi mumkin.

11. Argumentlash quyidagi uch xolatda muvaffaqiyatli amalga oshgan hisoblanadi, ya'ni nuqtai nazar (tezis) qabul qilinadi: 1. Argumentlovchining va resipientning dalili bir xil bo'lganda; 2. Argumentlovchining va tinglovchining dalili har xil bo'lsa ham, har ikki tomon o'z manfaati (qo'rquvi, tolerantligi, befarq munosabati) tufayli o'zaro kelishganda; 3. Argumentlovchining va resipientning dalili har xil bo'lib bir-birini to'ldirganda (yondashuv har xil bo'lsa ham) va maqsadi bir bo'lganda. Argumentlovchining dalili va resipientning dalili bir-biriga zid bo'lganda, har ikki taraf o'z fikrida sobit turib, qarshi tomonning dalilini inkor qiladi, bunda argumentlash muvaffaqiyatsiz deb hisoblanadi (tezisni tinglovchi qabul qilmaydi).

12. O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Homid G'azzoliyning tushunish va tushuntirish, fikrdagi tafovutlarning sabablari, nuqtai nazarni asoslash usullari, ratsional va irratsional argumentlar, argumentlashda yashirin asoslarning ifodalanishi, munozara va uning odoblari haqidagi ko'plab g'oyalari o'z davrida tabiiy va falsafiy fanlarning rivojiga, diniy va ilmiy bahs munozaralarning samarali bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan va Sharq Uyg'onish davrining muhim omillaridan biri bo'lgan. Zamonaviy argumentlash nazariyasida muhokama qilinayotgan masalalarning katta qismi ularning asarlarida o'z yechimini topgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/30.12.2019.F.01.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА
НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ЛОГИКО-КОММУНИКАТИВНОЙ ТЕОРИИ
АРГУМЕНТАЦИИ**

09.00.01 – Онтология, гносеология и логика

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2023

Тема докторской диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером V2017.1.DSc/Fal5

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) а также на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» www.ziynet.uz).

Научный консультант

Тўраев Бахтиёр Омонович
Доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Izzetova Emine Mustafaevna
доктор философии, профессор

Artikov Tolanboy Artikovich
доктор философии, профессор

Sultanova Gulnoza Sobirovna
доктор философии, профессор

Ведущая организация

Ташкентский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета Национального университета Узбекистана DSC.03/30.12.2019.F.01.05«__ __»2023 года в __ часов (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. факультет социальных наук Национального университета Узбекистана. Корпус5. Ауд.511)Тел:(9987)246-02-24,факс:(9987)227-1-24.e-mail:nauka@nuu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под №). (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел: (9987)246-02-24, факс: (9987) 227 12 24.

Автореферат диссертации разослан «__ __»2023 года. (Протокол реестра № от «__ __»2023 года.)

И.С. Саифназаров,
Председатель Учёного совета
по присуждению научных степеней
доктор философских наук, профессор.

Г.М. Рузматова,
Секретарь Учёного совета
по присуждению научных степеней
доктор философских наук, профессор.

Ж.С. Раматов
Председатель научного
семинара при Учёном совете

по присуждению научных степеней
доктор философских наук, профессор.

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии(DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, в результате стремительного развития коммуникативных технологий, процессы глобализации, начавшиеся в последней четверти XX века, имеющие конструктивные и деструктивные воздействия на содержание и объем личного и социального общения между людьми, были признаны мировым сообществом, как фактор, меняющий человеческое сознание и поведение. Научное обоснование того, что в информационном обществе аргументация, то есть формирование доверия к той или иной идее, учению, взгляду, мнению путем доказывания достоверности и приемлемости идеи, является наиболее эффективным и действенным средством манипулирования сознанием человека, привело к усилению информационных атак в коммуникативном пространстве. Сегодня углубленное изучение теоретических основ овладения сознанием и душой человека и практическая реализация полученных результатов стали одним из важных факторов обеспечения внутренней и внешней безопасности государств.

Ведущими учеными крупных научно-исследовательских институтов и университетов, научных центров развитых стран мира глубоко изучаются такие проблемы, как особенности формального, неформального, прагматодialeктического, диалогического, когнитивного, прагматингвистического и коммуникативного уровней аргументации, эпистемологические, эмоциональные, когнитивные, лингвистические аспекты аргументации, дискурс аргументации, связанные с глобализацией и глобальным информационным пространством. В результате достижений науки, внедрения в практику новых идей в области IT, становится все более важным расширить исследования по вопросам аргументации в образовании и воспитании, в виртуальном общении, искусственного интеллекта и аргументации, аргументации на цифровой платформе

Главной целью осуществляемых сегодня в нашей стране коренных реформ является закладка основ Третьего Ренессанса в Новом Узбекистане. Формирование реальных и виртуальных форм общения между государственными служащими и гражданами на гуманистической основе, использование средств информационной коммуникации и повышение культуры общения членов нашего общества обуславливают необходимость разработки научных теорий для реализации концепции "Новый Узбекистан – просвещенное общество"⁴⁵. Научные исследования, по изучению аргументации межличностного, межнационального, межгосударственного общения в Новом Узбекистане, имеют актуальное значение для реализации целей направленных "Из стратегии действий – к стратегии развития", для дальнейшего

⁴⁵ Указ Президента «О стратегии Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» УП-60 от 28 января 2022 года.

совершенствования механизмов открытого общения с народом, организации пропагандистской и агитационной работы, в разработке эффективных, творческих и инновационных методов повышения результативности духовного воспитания, повышения культуры общения, развитие навыков критического, аналитического мышления граждан при использовании информационно-коммуникативных средств.

Диссертация в определенной степени служит для исполнения поставленных задач, отмеченных в таких нормативно-правовых актах, как: Указ Президента от 28 января 2022 года, УП-60 «О стратегии Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановление Президента Республики Узбекистан от 18 июля 2017 года ПП-3138 «О повышении эффективности государственной политики в отношении молодёжи и поддержке деятельности Союза молодёжи Узбекистана»; от 14 августа 2018 года ПП-3907 «О мерах по поднятию системы духовно-нравственного и физического воспитания молодежи на качественно новый уровень»; от 26 марта 2021 года ПП-5040 «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительских работ»; также Постановление Кабинета Министров от 14 октября 2022 года ПКМ-595 «О дополнительных мерах по обеспечению соблюдения правил этикета государственными служащими» а также для реализации целей и задач, определенных в других нормативных документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Социальное, правовое, экономическое, духовное и просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴⁶. Нормативные, дескриптивные и продуктивные теории аргументации в контексте диалога индивидов, государств и культур в рамках прагматического, риторического, когнитивного, лингвистического подходов исследуются ведущими учеными крупнейших научно-исследовательских институтов и университетов, научных центров развитых стран мира, в том числе University of Rutgers (Нью Джерси, США), University of Colorado Boulder (США), University of Windsor (Канада), University of Edinburgh (Англия), University of Amsterdam (Нидерландия), University of Groningen (Нидерландия), University of Copenhagen (Дания), University of Lugano (Швейцария), University of Tokyo (Япония), University of Yonsei (Южная Корея), University of Kim *IL Sung* (Пхеньян, НДРК),

¹<https://www.rutgers.edu>; <https://www.colorado.edu>; <https://www.uwindsor.ca>; <https://www.ed.ac.uk/>; <https://www.abc.uva.nl>; <https://www.rug.nl>; <https://www.ku.dk>; <https://www.usi.ch/en>; <https://www.u-tokio.ac.jp/en>; <https://www.yonsei.ac.kr>; <https://www.ryongnamsan.edu.kp>; <https://www.univ.kiev.ua>; <https://bseu.by>; <https://philos.msu.ru/kaf/logic>; <https://philosophy.spbu.ru/ru/institut...kafedra-logiki.html>; <https://kpfu.ru>; www.nuu.uz.

Киевский Национальный университет (Украина), Белорусский государственный экономический университет (Белоруссия), Московский государственный университет имени Ломоносова (Россия), Санкт-Петербургский государственный университет (Россия), Казанский федеральный университет (Россия) и в Национальном Университете Узбекистана.

